



O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston. Email: fazliddinuktamov96@mail.ru

PROSPECTS FOR ENSURING AND DEVELOPING THE FINANCIAL SECURITY OF LOCAL BUDGETS IN UZBEKISTAN

Uktamov Fazliddin Fakhridinovich
Independent Researcher, ISFT Institute
Tashkent, Uzbekistan. Email: fazliddinuktamov96@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalliy budjetni moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi keng yoritib berilgan. Shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va budjetni moliyaviy xavfsizligi kabi tushunchalarni olimlarning ilmiy nazariy ishlari keng yoritib berilgan. Qolaversa, budjetning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy xavfsizligining o'zaro bog'liqlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, mahalliy budjetni moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi bo'yicha xulosa va takliflar keltilgan.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the mechanism for ensuring the financial security of local budgets in Uzbekistan. Also, the scientific and theoretical works of scientists on such concepts as local self-government and financial security of the budget are widely covered. In addition, the interrelation of the financial stability and financial security of the budget and the mechanisms for ensuring financial security are developed. In addition, conclusions and proposals are made on the mechanism for ensuring the financial security of the local budget.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, moliyaviy xavfsizlik, budjetni moliyaviy xavfsizligi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, moliyaviy barqarorlik, budjet.

Keywords: local budget, financial security, financial security of the budget, local self-government, financial stability, budget.

Kirish


So'nggi o'n yilliklarda O'zbekistonda davlat tuzilishi va boshqaruvida demokratik tamoyillarning rivojlanishi natijasida xalq tomonidan boshqaruv va moliya-budjet huquqlariga ega bo'lgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruvi tizimining majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Umumdavlat moliya tizimida hududiy moliyaning ahamiyati keskin oshdi va oshishda davom etmoqda. Shunga mos ravishda mahalliy budjetlarning roli ham tobora ortib bormoqda[1]. Bugungi kunda barcha davlatlar oldida turgan eng muhim masala mamlakat moliyasining oldida turgan dolzarb muammolaridan biri - bu mahalliy budjetlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, hududlarda davlatning o'z funksiya va vazifalarini to'liq bajarish uchun hududlarning o'z daromadlarini oshirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada ko'pgina rivojlangan davlatlar eng samarali mexanizmi ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishgan va bu chora-tadbirlarning o'zimizga mos jihatlarni mamlakatimiz budjet tizimida qo'llash mahalliy budjetlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash muammolarini bir qadar yengillashtirgan bo'lar edi. Albatta, bu

jarayonda mamlakatlar soliq va budjet tizimi o'rtasidagi o'xshashlik muhim xususiyat hisoblanadi. O'zbekistonda mahalliy budjetlarning ahamiyati shundaki, ular moliyaviy mablag'larni safarbar etish va sarflash orqali boshqa darajadagi budjetlar

bilan birgalikda munitsipal tuzilmalar hududida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishni va mahalliy jamoalarning hayotiy masalalarini hal etishni ta'minlaydi[2].

1-rasm. Budjetning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy xavfsizligining o'zaro bog'liqlik sxemasi

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.



Material va metod

"Mahalliy o'zini o'zi boshqarish" atamasi turli mamlakatlarda, turli davrlarda va turli mualliflar tomonidan har xil tushunilgan. XX asr boshlarida yashagan nemis olimi G. Yellinekning ta'rifiga ko'ra, "o'zini o'zi boshqarish - bu professional davlat amaldorlari bo'lmagan shaxslar vositasida amalga oshiriladigan davlat boshqaruvidir. Bu boshqaruv, davlat-byurokratik boshqaruvdan farqli o'laroq, manfaatdor shaxslarning o'zlari orqali amalga oshiriladi"[3].

So'ngi yillar ilmiy ishlar doiralarida

hokimiyat tomonidan berilgan yoki umumiy huquqqa ko'ra ularga tegishli bo'lgan majburiyat va vakolatlarni amalga oshirishdir[5].

L.A. Velixovning fikriga ko'ra, marksizm nuqtai nazaridan, mahalliy o'zini o'zi boshqarishni mahalliy aholining hukmron sinfi vakillaridan saylab olingan vakolatli shaxslar orqali tashkil etiladigan, mahalliy ishlarning muayyan doirasini qamrab oluvchi davlat boshqaruvi sifatida ta'riflash lozim edi[6].

Zamonaviy "mahalliy o'zini o'zi



2-rasm. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

N.I. Lazarevskiyning quyidagi ta'rifi keng tarqalgan edi: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish - bu markazlashmagan davlat boshqaruvi bo'lib, unda mahalliy organlarning mustaqilligi shunday huquqiy kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadiki, bu tizim markazlashmaganlik haqiqatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga mahalliy davlat boshqaruvi organlarining mazkur hudud va uning aholisi bilan uzviy aloqasini ham ta'minlaydi"[4].

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish nazariyotchilari, britaniyalik olimlar I. Redlix va P. Ashley mahalliy o'zini o'zi boshqarishni quyidagicha ta'riflaydilar: bu mahalliy aholi yoki ularning saylangan vakillari tomonidan qonun chiqaruvchi

boshqarish" tushunchasini aniqlashda uning O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida va Yevropa mamlakatlarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish xartiyasida qanday talqin etilganini ham hisobga olish lozim. Unda "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi[7]:

1. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoat ishlarining salmoqli qismini tartibga solish va boshqarish, qonun doirasida, o'z mas'uliyati ostida va mahalliy aholi manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish huquqi hamda haqiqiy qobiliyati tushuniladi.

2. Bu huquq erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri va umumiy ovoz berish yo'li bilan saylangan a'zolaridan tashkil

topgan kengashlar yoki yig'inar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki yig'inar o'zlariga hisobot beradigan ijro organlariga ega bo'lishi mumkin. Ushbu qoida, agar qonunda ruxsat etilgan bo'lsa, fuqarolar yig'inlari, referendum yoki fuqarolarning bevosita ishtirokining boshqa har qanday shakliga murojaat qilishni istisno etmaydi".

Mahalliy budjetning moliyaviy xavfsizligi - bu uning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, bunda munitsipal tuzilmaning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan yetarli moliyaviy resurslarni shakllantirish hamda ularning shakllanishi va sarflanishini tegishli nazorat qilish ta'minlashdir.

Tahlil va natijalar

Mahalliy budjetning moliyaviy barqarorligi boshqa moliyaviy toifalar: moliyaviy xavfsizlik, moslashuvchanlik, barqarorlik va muvozanat bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu tushunchalarning o'zaro aloqadorligi nazariy sxemasi 1-rasmda aks ettirilgan. Mazkur toifalar bir-birini sezilarli darajada taqozo etishiga qaramay, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda, moliyaviy xavfsizlik mahalliy budjetning o'z vazifalarini bajarish va munitsipalitetni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun moliyaviy barqarorligining chegaraviy holatini belgilaydi hamda mahalliy budjetning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Moliyaviy xavfsizlikning mohiyati quyida batafsil ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi uch tarkibiy qismdan iborat: budjet sohasidagi manfaatlar, *to'rt subyekt (davlat, mahalliy hokimiyat organlari, jamiyat, inson)*, tahdidlar manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xavf tug'diruvchi omillar sifatida, hamda tahdidlarni bartaraf etish, ularni bashorat qilish, o'z vaqtida oldini olish va profilaktika qilishga qaratilgan

chora-tadbirlar *tizimi* quyidagi sxemadan iborat (2-rasm).

Munozara

Mahalliy budjetning moliyaviy xavfsizligi munitsipal tuzilma iqtisodiy xavfsizligining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va uni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

1. Mahalliy budjet holatiga xavf va tahdidlarni aniqlash.

2. Moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarini belgilash.

3. Moliyaviy barqarorlik va xavfsizlikni kuzatib borish.

4. Qisqa muddatli va o'rta muddatli davrda (3 yilga mo'ljallangan budjetni rejalashtirish va ijro etishda) mahalliy budjetning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

5. Tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish, ularni baholash va tuzatish kiritish.

6. Tashqi muhit holati, munitsipal tuzilma maqsadlari va vazifalarining o'zgarishiga qarab ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritish.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida moliyaviy xavfsizlik muammolari makrodarajada yoritilgan. Xavfsizlikka tahdidlar ochib berilgan, ularning butun mamlakat uchun ichki va tashqi tahdidlarga tasnifi keltirilgan.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston budjet tizimining institutsional tuzilmasi budjet yagonaligi va yuqori darajadagi markazlashuv bilan tavsiflanadi. Boshqaruvning har bir bosqichi vazifalarini aniq belgilash maqsadida bozor unsurlari - nomarkazlashtirish institutlari bilan to'ldirilayotgan bo'lsa-da, markazlashtirishning asosiy institutlari hamon yetakchi o'rinni egallaydi. Modernizatsiya jarayoni har bir boshqaruv bosqichining vazifalarini yanada aniqroq belgilash va shunga muvofiq mamlakat budjeti



mablag'larini ushbu vazifalarni bajarish uchun taqsimlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mintaqaviy va mahalliy darajalarning mustaqil huquqiy subyektlar sifatida huquqiy jihatdan ajralib chiqishi ro'y

bermoqda, bu esa budjetlararo munosabatlarni o'rnatishda shartnomaviy asosdan kengroq foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Велихов, Л.А. Основы городского хозяйства: Общее учение о городе, его управлении, финансах и методах хозяйства [Текст] / Л. А. Велихов. -М.: Наука, 1996.-468 с.-С. 235.
2. Велихов, Л.А. Основы городского хозяйства: Общее учение о городе, его управлении, финансах и методах хозяйства [Текст] / Л.А. Велихов. - М.: Наука, 1996. - 468 с. - С. 235.
3. Европейская хартия местного самоуправления/ Офиц. перевод [Текст] // Собр. законодательства Рос. Федерации. - 1998. - № 36. - Ст. 8271 - 8278. - 4. Ст. 3. Стб. 8272.
4. Клейнер, Г.Б. Предприятие в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность [Текст] / Г.Б. Клейнер, В.Л. Тамбовцев, Р.М. Качалов. -М.: Экономика, 1997.-288 с.-С. 78.
5. Экономическая безопасность России: общий курс [Текст] / В.К. Сенчагов, Б.В. Губин, В.И. Павлов. - М.: Дело, 2005.-900 с.-С. 172.
6. Аналитическая записка о проблемах налогового, таможенного и бюджетного законодательства Российской Федерации и предложениях по его совершенствованию [Текст] // Бюллетень Счетной палаты РФ.-2004,-№8.-С. 209.
7. Экономическая безопасность России: общий курс [Текст] / В.К. Сенчагов, Б.В. Губин, В.И. Павлов. -М.: Дело, 2005.-900с.-С. 99.